

**QUDRATOV Sh. Yo.**

*Senior Lecturer,  
Bukhara History Department,  
Bukhara State University.  
Tel 91.4471785.  
Uzbekistan*

*Received 19<sup>th</sup> May 2022, Accepted 25<sup>th</sup> May 2022, Online 31<sup>th</sup> May 2022*

### **THE EMERGENCE OF NEW VIEWS OF THE JADIDS ON THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE EMIRATE OF BUKHARA**

**Abstract:** In the following article the detailed information about the emergence of new views on the development of entrepreneurship and commercial affairs in the Bukhara Emirate at the end of the 19<sup>th</sup> and early 20<sup>th</sup> century, criticism of problems in the economic sphere of the emirate by progressive Jadids who dreamed of implementing changes in all spheres of society, that they began to look for their solutions, their development of ideological programs for the development of the sphere is examined.

**Keywords:** entrepreneurship, trade, jadids, banks, credit, cotton growing, karakul growing, industry, foreign trade, export, agriculture, raw materials, capital.

### **ПОЯВЛЕНИЕ НОВЫХ ВЗГЛЯДОВ ДЖАДИДОВ НА РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ**

**Аннотация:** В данной статье подробно рассматриваются сведения о возникновении новых взглядов по развитию предпринимательства и коммерческого дела в Бухарском эмирате в конце XIX и начале XX века, критике проблем в экономической сфере эмирата прогрессивными джадидами мечтавшими осуществления изменений во всех сферах общества, что они начали искать их решения, разработывание ими идеологических программ по развитию сферы.

**Ключевые слова:** предпринимательство, торговля, джадида, банки, кредит, хлопководство, каракулеводство, промышленность, внешняя торговля, экспорт, земледелие, сырьё, капитал

### **BUXORO AMIRLIGIDA JADIDLARNING TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA YANGICHA QARASHLARINING VUJUDGA KELISHI**

**Аннотасија:** Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligida tadbirkorlik va tijorat ishlarini rivojlantirish borasida yangicha qarashlarning vujudga kela boshlanganligi, jamiyatning barcha jabhalarida o‘zgarishlar bo‘lishini istagan taraqqiyparvar jadidlarning amirlik iqtisodiy hayotidagi muammolarni tanqid qilib, ularga yechim izlay boshlaganliklari hamda sohani rivojlantirish bo‘yicha o‘zlarining g‘oyaviy dasturlarini ishlab chiqqanliklari to‘g‘risidagi ma’lumotlar atroflicha tahlil qilingan.

**Калит со‘злар:** Tadbirkorlik, tijorat, jadidlar, banklar, kredit, paxtachilik, qorako‘lchilik, sanoat, tashqi bozor, eksport, ziroatchilik, xom-ashyo, sarmoya.

## **Kirish (Introduction)**

Buxoro amirligida XIX asr oxiri- XX asr boshlarida tadbirkorlik va tijorat ishlarini rivojlantirish haqida yangicha qarashlar vujudga kela boshladi. Jamiyatning barcha jabhalarida o'zgarishlar bo'lishini istagan taraqqiyparvar ulamolar va jadidlar iqtisodiy hayotdagi muammolarni tanqid qilib ularga yechim izlay boshladilar hamda sohani rivojlantirish bo'yicha o'zlarining g'oyaviy dasturlarini ishlab chiqdilar. Ularning iqtisodiy g'oyalari markazda iqtisod ilmini o'rganish zarurligi, dunyo davlatlarida bo'lgani kabi ilg'or texnika va texnologiyalarni amirlik hududiga jalb etish, savdo-tijorat ishlarini ilmiy qurish, tadbirkorlik, agrar iqtisodiyot samaradorligini oshirish kabi masalalar muhim o'rin tutgan. Millat oydinlari tomonidan ilgari surilgan islohotchilik g'oyalarining asosiy maqsadi insonga munosib yashash va faoliyat olib borish sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat edi. Ular Rossiyaga yarim mustamlaka bo'lgan Buxoro amirligining umumjahon taraqqiyotidan tobora orqada qolayotgani, mahalliy aholining erk uchun intilishlarining bostirish sabablarini, nafaqat iqtisodiy sohada balki diniy va ma'naviy sohada ham yuzaga kelgan turg'unlikni chuqur anglagan holda jamiyatni isloh etish g'oyalarini maydonga tashladilar.

Buxorodagi taraqqiyparvarlik harakatining g'oyaviy asoschisi Ahmad Donish (1827-1897) mamlakatni obodonlashtirish, xalq farovonligini ta'minlash, Buxoroni obod o'lkaga aylantirish borasida muhim fikrlar bildirgan. Ahmad Donish o'zining siyosiy risolasida iqtisodiy-ijtimoiy sohaga oid, jumladan, banklar tashkil etish bo'yicha o'z takliflarini berdi. Davlat hukmdori soliqlardan yig'ilgan mablag'lar hisobiga banklar tashkil etishni, hunarmandlar va savdogarlarga belgilangan muddatlarda qaytarish sharti bilan past foizli kreditlar berish kerakligini tavsiya qildi [1].

Ahmad Donishning fikricha, davlatning eng birinchi vazifasi – xalq haqida g'amxo'rlik qilish bo'lib, buning uchun hokimlar davlat iqtisodiyotining yuksalishi, kanallar qazish, suv omborlari, yo'l, ko'priklar qurish, yerlarni o'zlashtirish, yer osti boyliklarini qayta ishlash, xalqni ma'rifatli qilish, fan va texnikani rivojlantirish, maktab, maxsus o'quv yurtlari ochish haqida qayg'urishlari lozim bo'lgan. Bu bilan Donish davlat manfaatlarining xalq xohishlariga bo'ysunishini ko'rsatgan edi.

## **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)**

Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi Maxmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) o'z maqolalarida Buxoro amirligidagi iqtisodiy muammolarga to'xtalib, ularni bartaraf etishga oid o'z tavsiyalarini taqdim etadi.

Behbudiyning Oyna jurnalida chop etilgan "Buxoro imorati" [2] nomli maqolasida Buxoro amirligining ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy hayoti xususida to'xtalib o'tib maktab va madrasalarda dunyoviy fanlar o'qitilmasligi oqibatida savdo, sanoat va tijorat rivojlanmaganligini tanqid qiladi. Buxoroning iqtisodiy imkoniyatlari xususida o'z fikr-mulohozalarini taqdim etib, amirlikda paxtachilik va qorako'lchilikning rivojlanganligini qayd etadi. Ammo Buxoroda sanoat texnikaning taraqqiy ettirish uchun hech qanday amaliy harakatlar bo'lmayotganini kuyunib yozadi. Behbudiy Turkistonning tashqi eksport operasialarini asosan chet ellik savdogarlar bajarishayotganligi mahalliy aholidan mahsulotni arzon garovga olgan holda tashqi bozorda qimmat narxda sotganligi, shu sababdan ham yetishtirilgan mahsulotdan olinadigan foydaning asosiy qismi ularning cho'ntagiga tushganligi haqida kuyunib yozgan.

Behbudiyning guvohlik berishicha, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining sifati ham juda past bo'lib, buning asosiy sababi texnologiyalarning eskirganligidir. Ulardan qutulishning muhim yo'lini ishlab chiqarish tijorat va boshqa sohalar bo'yicha zamonaviy bilimlarni egallagan mahalliy mutaxxasislarni tayyorlash va ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni qo'llash ekanligini

qayd etadi. Buning uchun esa barcha mahalliy boylar birlashib zarur mutaxassislar tayyorlash uchun ketadigan sarf xarajatlarga mablag' ajratish kerak bo'lgan [3].

### **Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology)**

Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usuldariga tayanadi.

### **Tahlil va natijalar (Analysis and results)**

Mamlakatimizda qadimdan milliy hunarmandchiligimiz mavjud bo'lib, shohi, adras, beqasam, alacha, boflıklar to'qilar edi. Biroq bular eskicha uslubda, eski texnikalar bilan to'qilganligi sababli biroz talab darajasida bo'lmaganlar. Chunki, Yevropa xalqlari yangi asboblarni, texnika texnologiyalarni qo'llab, bulardan yaxshiroq materiallar ishlab chiqaradi, natijada bizning mollarimiz bozorlarda o'tmay qoladi deb ta'kidlaydi.

Behbudiyning zamondoshi bo'lgan, yirik savdogar tabib va taraqqiyparvar Mirza Sirojiddin Hakim Buxoriy Boku, Botumi, Istanbul, Vena, Sofiya, Sarayevo, Budapesht, Berlin, Belgrad, Parij, London, Syurix, Marsel, Varshava, Sankt-Peterburg va Moskva shaharlarida bo'lib, sanoat korxonalari, universitet, muzey, kutubxona va kasalxonalar faoliyati bilan yaqindan tanishgan hamda u yerdagi taraqqiyotni o'z yurtida ko'rishni hohlagan[4].

Mirza Sirojiddin Buxoroning Yevropa va Osiyoning bir qator davlatlaridan orqada qolishiga birinchi sabab qilib ilm-fanning oqsayotganini ko'rsatsa, ikkinchi sabab qilib iqtisodiy qaramlikni ko'rsatadi va uning salbiy oqibatlarini haqida Butun yer yuzini ular (ovrupo mustamlakachilari) o'z tasarrufiga olganlar. Biz ularning qo'l ostiga qolganmiz. Biz iflos ko'cha va bozorlarda yashab kasb qilishimiz va quyosh issig'ida zirot bilan shug'ullanishimiz kerak va qo'lga kiritilgan boyligimizni ularning san'atlari evaziga berib, o'zimizni gadoy qilishimiz kerak.... Bolalarimiz libosidan boshlab to o'liklarimizning kafanigacha Ovrupodan keladi... Endi biz muhtoj bo'lmay, kim muhtoj bo'lsin. Ular biz Osiyoliklarning boyligini olib ketar ekanlar boy bo'lmay kim boy bo'lsin... Axir biz hai ularday odammiz. Biz ham yaxshi uylarda yashashni orzu qilamiz[5].

Buxoroning Yevropa mamlakatlaridan taraqqiyot jihatdan orqada qolganidan afsuslanib: "Hozir ovropoliklarning ishi shu darajaga borganki, temir yo'l mashinalaridan tortib to kemalari va osmon tayyoralarigacha zlekrik nurini bera oladilar. Biz hanuzgacha eshak minib yuribmiz" [6] deydi, Mirza Sirojiddin bundan tushkunlikka tushmaydi, u Buxoroning kelajagiga ishonadi va taraqqiyot asosini ilm, hunar va tarbiyaga bog'laydi.

Taraqqiyotga erishish uchun maorif sohasini rivojlantirish va isloh qilish kerakligini ta'kidlab: "Biz, Osiyo xalqi, ovro'poliklardan taraqqiyot jihatidan orqada qolgan bo'lsak ham, hali vaqt bor, qo'limizdan chiqib ketgan ilm va sarvatni qayta qo'lga olishga, bugungi faqirlikdan qutulishga imkoniyatimiz bor, taraqqiyot va obodonchilikni yo'lini to'sadigan biror narsa ko'rinmaydi va hech kim bizning yuzimizga ilm va hunar eshiklarini yopgani yo'q. Bizning taraqqiyotimiz ilmga bog'liqdir. Biz maktab va madrasalarimizdagi ta'lim va tarbiyani isloh qilishimiz kerak", - deb yozadi.

Buxoro jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Abdurauf Fitrat ham o'z asarlarida Buxoro amirligi iqtisodiyotiga oid muammolarni keskin tanqid qilib, ularning islohotlarga muhtoj ekanligini ta'kidlaydi. Fitrat Buxoro amirligini mustaqil taraqqiyot yo'liga olib chiqishning ikki yo'lini taklif etadi va bu g'oyani amalga oshirish yo'lida sobitqadamlik bilan kurash olib boradi. Mustaqillikka erishishning birinchi yo'li millatni, xalqni o'qimishli, ma'rifatli qilish, uningbarcha qatlamlariga ziyo tarqatish tarixan doimo ozod va mustaqil yashashga intilgan buyuk millat ekanligi ruhiyatini unga singdirish dunyo xalqlari erishgan ma'rifat va madaniyatidan, ilmiy texnik taraqqiyotidan bahramand bo'lish, odamlarda vatan taqdiri va istiqboli uchun mas'ullik hissini uyg'otish, mamlakatni xom-ashyo yetkazib beruvchi hudud bo'lib qolmaslikga chaqirish, uning uchun iqtisodiy tafakkur tuyg'usini shakllantirish deb bildi. Ikkinchi yo'l esa Buxoroning milliy iqtisodiyotini vujudga keltirish, mustaqil iqtisodiyot asoslarini qurish, jahon iqtisodiyoti bilan

iqtisodiy tenglik va manfaatlilik tamoyili asosida hamkorlik va integrasiyaga kirishishdir, deb ta'kidlaydi.

Abdurauf Fitrat o'z vatanini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'liga va xalqni farovon hayot tarziga olib chiqishning asosiy yo'li Turkistonga Yevropa fani, madaniyati, texnika, texnologiyasi, sarmoya va ilg'or tajribasini keng miqyosda va tez sur'atlar bilan kiritishda, deb bildi. Bu yo'lda ikkilanish, g'ayridin ilmi va texnikasini kiritishdan cho'chimaslik, sarosimaga tushmaslik, oriyat qilmaslik kerak, deb ta'lim berdi. Chunki, -deydi olim, - Yevropa xalqlari ham bir vaqtlar g'oyat qoloq va qashshoq bo'lishgan bir davrda Sharq fani, madaniyati, tajriba va amaliyotini qo'llash orqali yuksak taraqqiyotga chiqib olganlar. Zero, bundan 1000 yillar ilgari Yevropa xalqlari iqtisodiy va ma'naviy qoloq bo'lgan davrlarda Sharq xalqlari insoniyat sivilizasiyasining ancha yuqori darajasida bo'lganlar.

Fitrat o'zining "Hind sayyohi bayonoti" asarida iqtisodiy g'oyani ishlab chiqib, unda amirlikning tabiiy xom-ashyo manbalarga juda boy ekanligi, ular hozircha yashirilib yotganligi, bu yer osti boyliklarini o'zlashtirish, milliy hunarmandchilikni jahonning ilg'or mamlakatlaridan texnologiya keltirib zamonaviy asosda tubdan qayta qurish, xorijiy sarmoya, ilm-fan texnika yutuqlarini milliy iqtisodiyotni yaratishga dadil jalbetishga oid qarashlar ilgari surilgan [7]. U yoshlarni tadbirkorlik tijorat va savdo ishlariga o'qitish lozimligiga da'vat qilib, vatandoshlariga "Sizlar o'z farzandlaringizni tijorat maktablariga yuborib, savdo ilmini o'qitingiz, chunki begonalar, ya'ni xorijiy sarmoyadorlar tijorat ilmidan xabardor. Siz esa bexabarsiz" [8] deb yozadi. Abdurauf Fitrat tijoratning o'ziga xos madaniyatlar borligi va ularga amal qilish kerakligi to'g'risida " Tijorat masalasi bashariyatning hayot-mamot masalasidir .Dunyo xalqlaridan birortasining ishi tijoratsiz amalga oshmaydi. Ayniqsa bizning davrimizda tijorat juda e'tibor berishga arziydi " deb ta'kidlaydi [9].

Fitrat savdo va tijorat ishining o'ziga xos qoidalari mavjudligiga e'tibor qaratib, savdo va tijorat ishida millat, Vatan, yurt manfaatlari hisobga olinishi, ana shu manfaatlardan kelib chiqib, o'zaro ittifoq bo'lib faoliyat ko'rsatish lozimligini, savdo va tijorat ahli tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni zamonaviy sanoat asosida qurilishiga yordam ko'rsatishlari, sohibkorlarga amaliy madad berish kerakligi: savdo va tijorat ahli "Savdo ilmini zo'r berib o'qishlari va bilishlari lozimligini yevropaliklarning savdo va tijoratdan foyda olishlari zaminida madaniy savdo qilish ilmi bilishlaridan ekanligini" uqtiradi [10].

Jadidlar tomonidan jamiyatda vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni islohotchilik tamoyillari asosida hal etib ishlab chiqilganligi, institusional o'zgarishlarni mustamlaka tuzumini tubdan yo'qotishning maksimal darajada samarali yo'llarini tanlay bilganliklari, shubhasiz ularning tarixiy xizmatlaridir. Ular Buxoro amirligi iqtisodiyotini rivojlantirishda asosiy omillardan biri bo'lgan savdo va tijorat faoliyatini yaxshi tushunganlar.

XIX asr oxirlariga kelib Yevropa davlatlarida texnika sohasining rivojlanishi xalq xo'jaligining barcha jabxalariga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Xalqlar endi nafaqat dehqonchilik chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, balki sanoat sohasida ham yirik tadbirkorlik sub'yektlarini vujudga keltira boshladilar. Ilm-fan va texnika sohasidagi yangiliklardan xabardor bo'lgan millat oydinlari Ahmad Donish, Mirza Siroj Hakim Buxoriy, Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va Fayzulla Xo'jayevlar tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangicha qarashlarni targ'ib qildilar.

### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)**

Xullas, jadidlar Buxoro amirligining yer osti boyliklarini qayta ishlovchi sanoat korxonalarini tashkil etish lozimligini, paxta, ipak, qorako'l teri xom ashyolarini qayta ishlovchi korxonalar qurish hamda to'qimachilik fabrikalariga asos solish zarurligini aytib xalqni, Yevropa va rivojlangan

musulmon davlatlaridan o'rnak olishga chaqirdilar. Zamonaviy bilimga ega kadrlar tayyorlash hamda tadbirkorlik va savdo-sotiqni rivojlantirish muhim vazifa bo'lishi lozimligini uqtirdilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):**

1. Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoye. -B-49.
2. M. Behbudiy. Buxoro imorati. // Oyna 1915 yil 2may №14-B 375-381
3. M. Behbudiy. Ehtiyoji millat. Samarqand. 1915 yil 12 iyul.
4. Rajabov. Q. Siroj Hakim O'zbek milliy ensiklopediyasi. 7-jild. Toshkent, 2004. -B 650.
5. Mirzo Siroj. Tuxfai ahli Buxoro. Dushanbe. Adib. 1992. - S-76.
6. Mirzo Siroj. Oinai ibrat ya'ni asri madaniyat. Buxoro sharif. 1912 yil, 24 aprel
7. Fitrat. A. Hind sayyohi bayonoti. // Tanlangan asarlar. 1-jild-Toshkent.. Ma'naviyat 2000. - B.110-167.
- Fitrat. A. Hind sayyohi bayonoti Hind sayyohi bayonoti. // Tanlangan asarlar. 1-jild-Toshkent.. Ma'naviyat 2000. - B-167.
9. Fitrat A. Hind sayyohi bayonoti. Hind sayyohi bayonoti Hind sayyohi bayonoti. // Tanlangan asarlar. 1-jild-Toshkent.. Ma'naviyat 2000. -B.-140.
10. Fitrat. A. Hind sayyohi bayonoti. Hind sayyohi bayonoti Hind sayyohi bayonoti. // Tanlangan asarlar. 1-jild-Toshkent.. Ma'naviyat 2000. - B.151.
11. Ergashev B. E. et al. The Findings Of The Governors Of The Turkestan General-Governor's Office // Journal of Contemporary Issues in Business & Government. - 2021. - T. 27. - №. 4.
12. Rasulova D. B. HISTORY OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF ORIENTAL SCHOOLS IN FRANCE (IN THE XVI-EARLY XX CENTURIES) // Theoretical & Applied Science. - 2020. - №. 5. - C. 913-918.
13. RASULOVA D. B. INTERPRETATION OF THE CONSTRUCTION OF THE CENTRAL ASIAN RAILWAY IN FRENCH STUDIES // International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. - 2021. - T. 1. - №. 1. - C. 33-40.
14. RASULOVA D. B. INTERPRETATION OF THE CONSTRUCTION OF THE CENTRAL ASIAN RAILWAY IN FRENCH STUDIES // International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. - 2021. - T. 1. - №. 1. - C. 33-40.
15. Rasulova D. B. INTERPRETATION OF TURKISH MEDICAL ISSUES ON FRENCH SOURCES // 湖南大学学报 (自然科学版). - 2021. - T. 48. - №. 12